

MARKAZIY OSIYO GEGEMONLIGI UCHUN KURASHDA KIDARIYLARNING TUTGAN O'RNI

Saparov Sarboz Xolbo'ta o'g'li
Yangi Asr Universiteti tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada milodiy IV asrdagi Kidariylarni Markaziy Osiyoda tutgan siyosiy o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kidariylar, Talakon, Beyshi, Shopur II, Eftallar, Sosoniylar, Markaziy Osiyo.

O'rta Osiyoning bu qadimiy va boy zaminida o'z izini qoldirgan turli xalqlar yashab kelgan. Aynan mana shu davr tarixmizda juda kam o'rganilgan ammo yirik siyosiy ta'sir ko'rsatgan xalqlardan biri kidariylar bo'lib, ular yozma manbalarda kam tilga olingan. Kidariylar yoki kidara xunlari — IV-V asrlarda Baqtriya hamda O'rta Osiyo va Janubiy Osiyoning unga tutash hududlarida hukmronlik qilgan suloladir. Kidariylar Hindistonda "huna" nomi bilan, Yevropada esa "xioniy"lar (eroncha Xwn/Xyon nomlaridan olingan) nomi bilan mashhur bo'lgan xalqlar majmuasiga mansub bo'lgan va hatto xioniylar bilan bir xil deb hisoblanishi mumkin. V asrda yashagan Vizantiya tarixchisi Prisk ularni kidariy xunlari yoki "kidariy xunlar" deb atagan. Huna/Xioniy qabilalari ko'pincha ziddiyatli bo'lsa-da, xuddi shu davrda Sharqiy Yevropaga bostirib kirgan xunlar bilan bog'langan.

Kidariylar asosiy hukmdorlaridan biri Kidara (xitoycha: Sidolo, qadimgi talaffuzi: 寄多羅) sharafiga shu nom bilan atalgan. Kidariylar lotin manbalarida "Kermichionlar" (eroncha Karmir Xyondan) yoki "Qizil Xuna" nomi bilan tanilgan huna qo'shinining bir qismi bo'lgan ko'rindi. Kidariylar O'rta Osiyoda to'rtta yirik Xioniy/Xuna davlatining birinchisini, so'ngra Alxon, Eftalit va Nezak davlatlarini barpo etishdi.

Biz ushbu tadqiqotda bevosita O'rta Osiyoning kidariylar davridagi siyosiy tarixiga to'xtalamiz. IV asrning 60-yillarning oxiri — 70-yillarning o'rtalaridan Shopur II ga qadar poytaxti Balxda bo'lgan kushonlar bilan ikki marta jang qilgan. Bu urushlar voqealari bizga arman tarixchisi F. Buzandning "Armaniston tarixi" asari tufayli ma'lum. Birinchi urushni "shoh Kushon" boshlagan, Shapur II shaxsan Sosoniylar qo'shiniga rahbarlik qilgan, ammo bu forslarga yordam bermagan:

“Kushon qo’shinlari fors qo’shinlarini mag‘lub etdilar, ko‘plab fors qo’shinlari o‘ldirildi, ko‘plari asirga olindi, qolganlari esa haydab yuborildi”¹.

Shopur II qasos olmoqchi bo‘lgan ikkinchi urush xuddi birinchisi kabi forslar uchun ham ayanchli yakun topdi: “jangda har ikki tomonning qo’shinlari bir-biri bilan to‘qnashganda, Fors qo’shini Kushonlar qo’shinlari tomonidan mag‘lubiyatga uchradi va qattiq zarbalar olib, qochib ketdi. Fors qo’shinini (kushonlar) bosib o‘tib, ulardan hech birini, hatto hech bo‘lmaganda xabar keltira oladigan kishini tirik qoldirmadi”².

IV asrning 70-yillarida faqat Xioniylar Shapur II ga qarshi tura olishdi, chunki aynan shu o’n yilliklarda ularning kuchi yuksaldi. “F. Buzand qissasi, – deb yozadi K. Trever, – 368-377-yillarga ishora qilib, Favst an’anaga ko‘ra kushonlar deb atashda davom etayotgan xiyoniylarga alohida to‘xtalib o‘tish kerak” va “zamondoshlar kushonlar va xioniylar o‘rtasida haqiqatda bir-biridan farq qilmaganlar. Bu, ehtimol, ular orasida etnik jihatdan unchalik katta farq yo‘q edi”³. Bir qator olimlarning (M.M.Dyakonov, A.M. Mendelshtam, V.M.Masson) ma’lumotlariga ko‘ra, Shapur II xioniylar ittifoqchi bo‘lgan kidariylar bilan kurashgan. V.M. Massonning qayd etishicha, “arman tarixchilari “kushonlar” atamasini juda keng ma’noda qo’llashgan”⁴.

B. Y. Staviskiy va B. I. Vaynberg numizmatik materiallarni tahlil qilar ekan, “Shopur I (383-388) yoki Varaxran IV (388-399) hukmronligining oxirida sobiq Kushon Baqtriya hududida kidariy va xioniy tangalarini zorb qilish boshlanadi”⁵. Ya’ni, ularning fikricha, bu davrda bu hudud Sosoniylardan boshqaruvidan chiqib ketgan.

Bahram Gur nomi bilan epik an’analarda ma’lum bo‘lgan Shahonshoh Varaxran V (420-438) davrigacha O’rta Osiyo chegarasida sodir bo‘lgan har qanday fors to‘qnashuvi haqida biz hech narsa bilmaymiz. Shuni ta’kidlash kerakki, V asrda sosoniylar va Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi harbiy to‘qnashuvlar bilan to‘la edi.

Endi biz o‘rta asr arab-fors tarixchilari “turk” deb atagan Varaxran V ga kimlar raqib bo‘lganini aniqlashimiz kerak. Bu masala bo‘yicha zamonaviy tadqiqotchilarning fikrlari yana ikkiga bo‘lingan. Ba’zilar shahanshohning muxoliflari xiyoniylar (E. E. Nerazik, S. V. Vyazigin, B. G. G‘ofurov, K. V. Trever, A. Gubayev), boshqalari esa eftaliylar (A.N.Bernshtam, M.M.Dyakonov, A. M. Mandelshtam, S. P. Toshtov,

¹ К.В. ТРЕВЕР, Кушаны, Ххиониты и Эфталиты по армянским источникам IV - VII вв., СА, Москва 1954, вып. XXI, с. 133

² Л.Х. ТЕР-МКРТИЧЯН, Армянские источники о Средней Азии V-VII вв., Москва 1979, с. 48

³ К.В. ТРЕВЕР, Указ. раб., с. 135

⁴ АЙДОГДЫ КУРБАНОВ “ПОЛИТИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ ЭФТАЛИТОВ” 2003, с. 44

⁵ Б.Я. СТАВИСКИЙ, Б.И. ВИНБЕРГ, Сасаниды в правобережной Бактрии (Тохаристане) в/У-Увв., ВДИ 3,1972, с. 188

P.G.Bulgakov), boshqalar kidariylar (L.N. Gumilyev) bo‘lgan deb hisoblaydilar. Xususan, L.N. Gumilyov shunday ta’kidlaydi: “Yazdigard II “xunlar mamlakatida yashagan xunlarga qarshi yurish” ortidan yurish qildi”, ya’ni Kidariylar... 451-452 yillarda kidariylar podshosini sahroga qochishga majbur qiladilar. Ammo 454 yoki 456 yillarda, keyingi hujum paytida forslar Kidariylar tomonidan mag‘lubiyatga uchradilar”¹. L. N. Gumilyov yana shunday yozadi: “Balyamiy “Turklarning xoqoni” deb atagan kidariylar podshosini “Xitoy podshosi” deb atalgan eftaliylardan aniq ajratadi. Bu tasvirlangan voqealarda ilgari taxmin qilinganidek bir emas, ikki xalq ishtirok etgan degan xulosaga kelishga asos bo‘ladi”². Bu yerda L.N.Gumilyov o‘ziga qarama-qarshi bo‘lib, dastlab kidariylar forslar bilan kurashganliklari, keyin esa ularning raqiblari nafaqat kidariylar, balki eftaliylar ham bo‘lganligi haqida xabar beradi. Shunday qilib, bu holatda L. N. Gumilyov varianti faqat voqealar rivojini chalkashtirib yuboradi.

Eron sosoniyları eftaliylar bilan shiddatli urushlari 459-484 yillarda hukmronlik qilgan Shahanshoi Pero‘z (Firuz - o‘rta asrlarda arab-fors tarjimasida "G‘olib" deb tarjima qilingan) davrida sodir bo‘ladi. 457-yilda Yazdigerd II vafotidan keyin ikki o‘g‘li o‘rtasida taxt uchun kurash boshlandi. Hormizd (Hurmizd) kattaligi bo‘yicha podshoh bo‘ldi va otasi qo‘l ostida Sakiston hukmdori bo‘lgan ukasi Pero‘z “sakanshoh” unvoni bilan ham qirollik taxtiga da’vogarlik qilib, ulardan yordam olish umidida eftaliylarga qochib ketdi. Balamiyda biz Pero‘z qochib ketgan Eftaliylar davlatining o‘ziga xos hududlari haqida ma’lumot topamiz: Garchiston, Toxariston, Balx. Firdavsiyning yozishicha, eftaliy podshosi Faganish Pero‘z ga yordam berib, unga Termiz va Visegerd (Vashgird — Amudaryoning o‘rta oqimida, Vaxsh va Kofirinikhon daryolari oralig‘idagi viloyat va shahar) evaziga 30 minglik qo‘sish beradi³. Eftaliylar otryadi yordamida Pero‘z 459-yilda ikki yillik kurashdan so‘ng ukasini taxtdan ag‘dardi, so‘ng uni o‘ldirib, o‘zi Shahanshoh bo‘ldi. 459-yilda Pero‘z eftaliylar podshosi Vaxshunvar bilan ittifoq shartnomasi tuzadi. At-Tabariyning yozishicha, Pero‘z hukmronligi nihoyatda baxtsiz edi, chunki mamlakatda bir necha yil davomida qattiq ocharchilik hukm surgan. Ammo Pero‘z hokimiyati Eronda mustahkamlanib, mamlakati og‘ir ocharchilik yillaridan keyin qayta tiklanishi bilanoq O‘rta Osiyodagi qo‘snilariga qarshi faol hujum siyosatini yurita boshladi. Uning ko‘p sonli urushlari haqidagi ma’lumotlar, turli manbalar tomonidan aytilgan, ko‘pincha parcha-parcha bo‘lib, har doim ham bir-biriga mos kelmaydi. Ko‘rinib turibdiki, birinchi bosqichda Pero‘z kidariylar bilan urush boshlagan. G‘arb manbalaridan biz bu haqda ba’zi ma’lumotlarni faqat Vizantiya muallifi V Prisk Paniyskiydagidan topamiz.

¹ Л.Н. ГУМИЛЕВ, Эфталиты - горцы или ..., с. 95

² Там же, с. 95

³ ФИРДОУСИ, Шахнаме, т. VI, Москва 1989, с. 6-7

Uning xabar berishicha, 456-yilda (ya’ni, hatto Yazdigerd II davrida ham) forslar kidariylar deb atalgan xunlarga qarshi kurash bilan band bo‘lganligi sababli Vizantiya bilan urushayotgan Lazelarga yordam bera olmagan. Bundan tashqari, Prisk Paniyskiy 464 yilda Pero‘z elchilari Kidariy xunlarga qarshi kurash uchun Vizantiyadan ularning bosqinini oldini olish uchun subsidiyalar talab qilganligini ko‘rsatadi: “Ular (elchilar) kidariylar deb atalgan xunlarga qarshi urushda (rimliklar) pul bilan yordam berishlari kerakligini aytishdi”¹. Forslarning ular ustidan qozongan g‘alabasi Vizantiya mintaqalarining osoyishtaligini ham belgilab qo‘ydi, chunki bu ularni hujum qilish imkoniyatidan mahrum qildi. Bunga javoban vizantiyaliklar muzokaralar uchun Eronga o‘z vakilini yuborishga va’da berishdi, “xunlarga qarshi urush” uchun subsidiyalarga kelsak, o‘z himoyasi uchun qilingan ishlarni ulardan talab qilish nohaqlikdir. Vizantiyadan Pero‘zga elchi sifatida yuborilgan Eparx Konstantiy uzoq vaqt Vizantiyaning Eron bilan chegarasiga yaqin joylashgan Edessa shahrida yashadi. Nihoyat, Pero‘zning oldiga borishga taklif qilindi. Pero‘z Bu paytda forslar jang qilgan xun-kidariylar bilan qo‘shni bo‘lgan Fors chegarasida edi. Forslarning xun-kidariylar bilan jang qilgani sababi, xun-kidariy podshosining otasi o‘z davrida forslarga tovon puli to‘lashdan bosh tortgan edi. Taxminan, 468 yilga kelib, forslar Bolxondag'i Turkmanboshi(Turkmanistonda)² ko‘rfazining sharqida joylashgan Kidariy Valaam shahrini qamal qilganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Xitoy manbalarida Bolo deb ataladi. Xususan, “Beyshi”da shunday deyiladi: “Buyuk Yuechji hukmdorining qarorgohi, Day(davlat poytaxti, Shimoliy Vey)ning g‘arbida Fujisidan 14500 li uzoqlikda Yunlanshi shahrida joylashgan. Shimolda Jujanlar bilan qo‘shni bo‘lib, u tez-tez ularning hujumlariga duchor bo‘lgan; shuning uchun u o‘z saroyini g‘arbgan, Fujisidan 2100 li uzoqlikdagi Belo shahriga ko‘chirdi. Shundan so‘ng, jasur Yuechji hukmdori Sidolo o‘z qo‘shinlari bilan katta tog‘lar (Hindukush) orqali o‘tib, Shimoliy Hindistonga hujum qildi va Gantolodan (Gandxara) shimolgacha bo‘lgan beshta davlatni bosib oldi”³. V. V. Bartold ta’kidlaganidek, I. Markvart keltirgan Vizantiya va Musulmon manbalaridan kelib chiqadigan yanada muhim holat shundaki, forslar va kidariylar o‘rtasidagi janglar bu davrda Balx yaqinida emas, balki Girkaniyada sodir bo‘lgan. I. Markvart Kidariylar poytaxtini Bolxon tog‘lari yaqiniga qo‘yib, Day va Bolo, Day va Balxon shahar nomlarining talaffuzidagi o‘xshashlikdan ular orasidagi masofalarning nisbiy mos kelishidan kelib chiqdi⁴. Bartoldning fikricha, “Tomashek

¹ Н.В. ПИГУЛЕВСКАЯ, Указ. раб., с. 53

² Там же, с. 54

³ Н.Я. БИЧУРИН, Указ. раб., с. 264

⁴ Х. ЮСУПОВ, Еще раз о столице Кидаритов, Известия АН ТССР СОН. 2, Ашхабад 1980, с. 39

va Markvarning Prisk (V asr) tomonidan eslatilgan Bolxon va Xitoydagi Bolo bilan o‘xshatilishligini bir bahona deb ko‘rsatadi”¹.

S.K.Kabanovning fikricha, Kidariylar qarorgohi Nashebolo (xitoy manbalariga ko‘ra) ya’ni Naxshab Qarshi shahridan 10 km shimoli-g‘arbda vohada joylashgan Yerqo‘rg‘on shaharchasi hududida deb ko‘rsatadi. Isboti sifatida (xitoy manbasiga asoslanib), Shi (Kesh, hozirgi Shaxrisabz) va Nishebolo o‘rtasidagi masofa 200 li, ya’ni hozirgi Shaxrisabz va Qarshi geografik joylashuviga mos ekanligi va Nishebolo joylashuvi Nyumi (Buxoro)ga nisbatan janubroqda ekanligiga e’tiborni qaratadi. A.M.Mandelshtamga ko‘ra, Boloni Balxga joylashtirgan holda “Beyshi”da keltirilgan Fudishdan Bologo qadar masofani hisoblab chiqadi va uni xato ekanligini aytadi.

Kidariylar poytaxti joylashuvi bo‘yicha tarixiy manbalarda fikrlarni turli va tortishuvli ekanligini hisobga olsak, tadqiqotchilar hozirga qadar hodisalarda yagona davriy to‘xtamiga kela olishmayapti.

Boshqa tadqiqotchilarning fikricha (M.Martin, R.Girshman, A.M.Mandelshtam) IV asrning ikkinchi yarmida Kidara hukmrodlik qilgan va Shopurning raqibi bo‘lgan va boshqa tadqiqotchilar (L.N.Gumilyov, S.K.Kabanov) Kidara va kidariylar davlatini mavjudligini V asrning birinchi yarmiga tegishli ekanligini ko‘rsatishadi.

Kidariylar kim va qaysi davrda Kidara bilan aloqador ekanligini borasidagi masala bo‘yicha “Beyshi”da tasvirlangan hodisa bir necha tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Bu borada batafsil I.Markvart anchagina shug‘ullangan. Kidariylar davlati kushon imperiyasi qoldig‘i va eski poytaxtdan (I.Markvartga ko‘ra Iskimshit) ko‘chib ketishlari avarlarni hujumlari bilan izohlaydi va Bolo – bu Kaspiybo‘yidagi Bolxon bo‘lib, aynan Paniylik Prisk aytgan Valaam bilan bir xil degan xulosaga keladi. Shu yerlardan keyinchalik sobiq yuechjilarni besh yerini egallah va shimoliy Hindistonga yurishlari amalga oshirilgan. Bolxонни Pero‘z tomonidan egallanishi ortidan Kidara o‘g‘li Kunhon (ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Kungxa, Kunxas ya’ni sakcha nom “Skunxa” va turkcha “Gunhan”) Gandrahaga ketin, u yerda Kichik Yuechjilar davlatiga asos solgan. Kidara bilan bo‘lgan hodisani I.Markvart V asrga talluqli deb ko‘rsatadi².

I.Markvartning Kidara boshqaruvi V asrlarga talluqli degan qarashi M.martin va R.Girshman tomonidan tanqidga uchragan. Ular numizmatik materiallarni o‘rganishlari natijasida Kidaraning hukmronligi IV asrga tegishli deb ko‘rsatishadi. M.Martin fikricha, Kidara IV asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan va dastlab Shopur II ga bo‘ysungan. So‘ngi Kushon davri gipotetik jihatidan M.Martin tomonidan quyidagicha shakllantiriladi. 350 yil atrofida Juan-Juanini majbur qilib Kushonlarni

¹ O’sha asar, b 40.

² А.М. М А Н Д Е Л Ъ Ш Т А М , К вопросу о кидаритах, [в:] Краткие Сообщения Института Этнографии, вып. XXX, Москва 1958, с. 67

Baqtriyani tark etishga, bir qism Kaspiy bo'yicha va yana bir qismi Kidara boshchiligidagi Gandharaga ketadilar. Shuning ortida Shopur II sharqqa harbiy yurishlari kuzatiladi va natijada Kidara eron hokimiyatini tan olishga majbur bo'ladi. IV asrning 60 yillarida Kidara bu qaramlikdan qutiladi, ammo tez orada Oq Hunnlarni bosqini xavfi sabab o'g'li Piro Peshovorga qoldirgan holda o'zi shimolga ketishga majbur qilgan. Oq Hunnlar bilan to'qnashuv bo'lganmi yoki yo'q bu noma'lum, lekin ularni tahminan 400 yilda Kobul va Gandharaga bostirib kirganliklari ma'lum.

Xioniylar va Eftaliylar tarixini mufassil tadqiq qilgan R. Girshman qarashicha Kidariylar Sharqiy Turkistondan kelgan kelgindilar deb tasvirlaydi. IV asrda hukmronlik qilgan Kidara Shopur II bilan zamondosh bo'lgan va bu o'sha davrda Tepe Marenjandan topilgan toj va topilmalar tarkibi o'xhash ekanligiga urg'u beriladi. Xioniy larga tayangan holda Sosoniylarni Baqtriyadagi hukmronligini tugatdi, ammo Shopur II ning u yerdagi vassal bo'lishligini tan olishiga to'g'ri keldi. Kidara hokimiyati poytaxti Balx edi. Kidara zabul qabilalari yordamida Kobul va Gandharani egalladi va 367-368 yillarda Shopur II ga zarba berib o'zining Eronga qaramligini tugatdi. Biroq, ittifoqchisi xioniylardan yordam olgan Shopur II 371 yilda Baqtriyani egallaydi¹.

Pero'z va eftaliylar o'rtasidagi uchinchi urushning sababi eronlik shahanshohning aldovi edi. Prisk Paniyning yozishicha, Pero'z Kunxa (Gunxaz) ismli "kidariy" podshosi bilan sulh tuzishni taklif qiladi va o'zining samimiy niyati garovi sifatida Kunxaga o'z singlisi deb bir ayolni yuboradi. Belgilangan manzilga yetib kelgan bu ayol ularga Pero'zning singlisi emas, quli ekanligini aytdi. Ha, aldov fosh bo'ladi. Bundan g'azablangan podshoh Kunxa shahanshohdan o'ch olishga qaror qiladi. U o'zining katta armiyasi borligini, ammo yaxshi zabitlar yo'qligini nazarda tutib, Pero'zdan tajribali kishilarni harbiy instruktur qilib yuborishni so'raydi. Hech narsadan bexabar Pero'z javoban 300 nafar forsni yubordi. Ular yetib kelganda, hiylaga javoban qasos olish uchun "kidariylar" - ulardan ba'zilari o'ldirgan. Natijada jangovar harakatlar yana boshlandi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, Prisk bu yolg'on haqida gapirar ekan, Pero'zning raqibida eftaliylarni emas, balki kidariylarni ko'rgan. B. G'ofurov bu xabar kidariylarga tegishli ekanligini inkor etmaydi, lekin baribir u Prisk Paniskiy barcha O'rta Osiyo xunlarini "kidariylar" deb atagan versiyaga ko'proq moyil bo'lib, kidariylar haqidagi hikoyalarida O'rta Osiyoning turli ko'chmanchilari haqidagi xabarlar bir-biriga bog'langan².

Xulosa. Markaziy Osiyoda joylashgan ko'chmanchi xalqlar doimiy ravishda qo'shnilarini bilan faol siyosiy va iqtisodiy aloqada bo'lishi va ularning xalqaro

¹ O'sha joyda, b 68.

² Б.Г. ГАФУРОВ, Указ. раб., с. 199-200

miqyosada katta ta'sir etganini yuqorida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari bu hududda hukmronlik qilgan davlatlar xronologik jihatdan Xioniylar, Kidariylar va Eftallar hukmrolik qilgan bo'lsada, ularni ajratishda turli qiyinchiliklar mavjud. Xususan Kidariylarni ba'zi tarixchilar aslida eftallar edi deb tahlil qilishadi. Ammo vizantiyalik tarixchi(Prisk Paniskiy)ning keltirgan ma'lumotlarini inkor eta olmaymiz. Keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda shuni xulasa qilib ayta olamizki, Kidariylar bilan munosabat sosoniylar uchun g'arbdagi aloqalariga ham ta'sir qilgan. Chunki Vizantiya bilan munosabatlarda harbiy kuch bilan harakat qilishda avvalo sharqiylar bilan tinchklikni saqlay olishi kerak edi. Ya'ni Kidariylar Eftallar yoki Turk xoqonligi kabi bu mintaqada katta qudratga ega bo'limgan bo'lsada, lekin Markaziy Osiyo va qo'shni hududlarda muhim ro'l o'ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1. К.В. ТРЕВЕР,** Кушаны, Ххиониты и Эфталиты по армянским источникам IV - VII вв., СА, Москва 1954.
- 2. Л.Х. ТЕР-МКРТИЧЯН,** Армянские источники о Средней Азии V-VII вв., Москва 1979
- 3. АЙДОГДЫ КУРБАНОВ "ПОЛИТИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ ЭФТАЛИТОВ"** 2003
- 4. Х. ЮСУПОВ,** Еще раз о столице Кидаритов, Известия АН ТССР СОН. 2, Ашхабад 1980